

Tasavvufiy Adabiyot Tarixining Alisher Navoiy Asarlarida Yoritilishi

Eshniyazova Maysara Beknazarovna¹

¹ Samarqand dvlrat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya:

mumtoz adabiyoti tarixida irfoniy-tasavvufiy mavzular ildizi VII asrlardan Islom dinining mamlakatimiz sarhadlariga kirib, xalq ongiga singib, e'tiqodida mustahkamlanib borishi bilan bog'liq. Diniy-tasavvufiy qarashlar adabiyotimiz tarixida o'z tadrijiy taraqqiyotiga ega. Tasavvuf va adabiyotning yaqinlashuvi inson axloqini poklash, uni komillik darajasiga ko'tarish g'oyalari bilan bog'liq bo'lib, adabiyotning ko'zga ko'ringan vakillari ijodida olam va odam munosabatlarini tahlil qilish, zohiriy va botiniy go'zallikka, ruh ozodligi, qalb pokligi, ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarda axloqiy yetuklikka erishish yo'llarini ko'rsatish asosiy mavzu sanaladi. Adabiyot tarixida inson kamolotida ma'rifatullohning o'rnini belgilash va ommaga yetkazishning takomillashib borishi ko'zga tashlanadi. Badiiy adabiyotda irfoniy-tasavvufiy mavzularning yirik hajmda in'ikos etishi XV asrlarga kelib yuksak cho'qqisiga ko'tarildi. Tasavvufiy adabiyotning Bbu davrgacha bo'lgan namoyondalari hayoti va faoliyati, adabiy merosi tizimli yoritilgan alohida manbalar yetarli emas. Ushbu kichik tadqiqotda ushbu masalaga e'tibor qaratildi hamda islomiy adabiyotning XV asrgacha bo'lgan tarixi va unga mansub ijodkorlarning faoliyatini xronolik aspektida yoritishga harakat qilindi.

Tayanch tushunchalar: irfon, tasavvuf, badiiy adabiyot, ijodkor, izdoshlik, nasr, nazm, janr, hassos she'riyat, badiiy g'oya, komil inson.

O'zbek adabiyoti tarixiga nazar tashlansa, XV asr ijtimoiy-siyosiy hayotida nisbatan tinchlik hukm surganligi, madaniyat va ilm-fan ahliga yaratilgan sharoit va homiylik sabab madaniy, ilmiy, adabiy muhitda turli tarmoqlarning keng rivoj topganligini kuzatish mumkin. Bu davr Sharq Renessansining ikkinchi davri deya baholanadi. Ayni shu davrda san'atning bir turi sifatida mumtoz adabiyot ham yuqori taraqqiyot bosqichiga erishdi, badiiy asarlar salmog'i, mavzular ko'lami, ularning badiiy ifodasi, shakliy va timsoliy o'zgarishlar bu davr adabiyotida yaqqol ko'zga tashlanadi. Diniy va dunyoviy adabiyot yonma-yon yashagani holda tasavvufiy g'oyalar, ularning

badiiy ifodasi tizimli aks etgan noyob asarlar yaratildi.

Mintaqamiz mumtoz adabiyoti tarixida diniy-tasavvufiy mavzular ildizi VII asrlardan Islom dinining mamlakatimiz sarhadlariga kirib, xalq ongiga singib, e'tiqodida mustahkamlanib borishi bilan bog'liq. Diniy-tasavvufiy qarashlar adabiyotimiz tarixida o'z tadrijiy taraqqiyotiga ega. "Qur'oni karim oyatlari nozil etila boshlagach, VII asr davomida Tavhid e'tiqodi asosidagi insoniy birodarlik jamoasi – "umma" tushunchasi shakllangan bo'lsa, VIII asr ikkinchi yarmi – IX asr boshlaridan minaqaning uch buyuk xalqi – arab, fors va turkiy elatlararo siyosiy qudratda o'ziga xos muvozanat holati vujudga keldi, ya'ni Islomning asl g'oyasi – musulmon ummatining tengligi amalda joriy bo'lishiga voqe' imkon tug'ildi. Natijada islom dini keng tarqalgan ulkan bir hududda yagona g'oya ostida birlashgan yaxlit madaniy mintaqah tashkil topdi va u VIII-XV asr davomida ma'naviy jihatdan uzluksiz takomil topib bordi"¹.

Musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy-ma'naviy hayotiga chuqur kirib borib, madaniyat, fan hamda adabiyot rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan tasavvuf ta'limoti nafaqat sufiylar, balki ijod ahlining ham ilhom manbayiga aylandi. San'at, uning bir sohasi bo'lgan badiiy adabiyot milliy madaniyatning tarkibiy qismi sanalib, badiiy tafakkurning mevasidir. Badiiy tafakkur esa o'z navbatida hayot mohiyatini anglab yetishning mustaqil yo'li sifatida mohiyatan taxayyul va tasavvur vositasida Borliq haqiqatini shakllantirishga urinishdir. "Mumtoz adabiyot esa Borliq haqiqatining botiniy jihatini zohiriy timsollar vositasida majoziy bayon etish qudratiga ega. Ana shu xislati tufayli u inson ruhini Borliq haqiqati bilan uyg'unlashtirishga yordam beruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi", – deydi M.Imomnazarov². Demak, ijodiy o'sish, tasavvur va taxayyul olamida sayr etish, ruhiy-ma'naviy manbadan oziqlanish barobarida tasavvuf va adabiyotning Inson manfaatiga xizmat qilish – ruhiy tarbiyasi, axloqiy kamoloti – poklanish, xulqlanish xislatlarini egallash, oliy manzil sari pok suvrat va pokiza tiynat bilan yuqorilash vazifasi musharak nuqtada tutashdi. Ijod olamida adabiyotning mana shu imkoniyatidan samarali foydalangan sohibi qalamlar badiiy adabiyot hamda irfon va tasavvufning maqsadlarini, vazifalarini uyg'unlashtirdilar.

Tasavvuf adabiyotini chuqurroq anglash uchun uning tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlash lozim. Avvalo, shuni aytish kerakki, tasavvuf tarixi olimlar tomonidan ikki guruhga ajratiladi:

- 1) zohidlik davri – "avvaligi (ibtidoiy) davr" deb ham atalib, sufiylar taqvo va pahezkorlikni bosh maqsad deb bilishgan. Vakillari Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Abu Hoshim Ko'fiy kabi sufiylardir.
- 2) oriflik va oshiqlik davri – o'zlikni anglash, borliqni, Allohni bilish, tanish va ruhiy ko'tarilish davri bo'lib, IX asr o'rtalaridan boshlanadi. Bu katta davrning IX-X-asrlarida xonaqohlar paydo bo'lib, tariqat rusumlari shakllansa, XI-XII asrlarida tasavvuf maktablari, silsilalari tarkib topdi (Bunday markazlar Buxoro, Termiz, Balx, Xuroson, Movarounnahr, Turkistonda ham shuhrat topganligini e'tirof etish lozim). Ayni shu XIII-XIV asrlarda esa tasavvufda nazariy-ilmiy hamda amaliy harakatlar yuksak cho'qqiga ko'tarildi va aynan shu davrda tasavvuf adabiyoti gullab-yashnadi.

Badiiy adabiyotning Islom mintaqa madaniyati doirasidagi ma'naviy takomil bosqichlari "Tasavvuf adabiyoti lingvopoetikasi"³ o'quv qo'llanmasida quyidagicha tasnif qilingan:

<i>Bosqich</i>	<i>Ma'naviy takomil bosqichlari</i>	<i>Tarixiy davr</i>	<i>Shaxs va millat takomil</i>
----------------	-------------------------------------	---------------------	--------------------------------

¹ Tasavvuf adabiyoti lingvopoetikasi. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2011. 89-бет.

² Yuqoridagi asar, 90-bet.

³ Tasavvuf adabiyoti lingvopoetikasi. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2011. 90-бет.

			<i>bosqichlari yoki ma'rifat yo'llari</i>
I	Sunna	VIII-IX asrlar	ibrat
II	Islom ma'rifatchiligi	X-XI asrlar	ilm
III	Tasavvuf tariqatlari yoxud Irfon	XII-XIII asrlar	riyozat
IV	"Majoz tariqi"	XIV-XV asrlar	mehr

Tasavvufga oid boshqa bir manbada Irfon davri biroz boshqacharoq vaqt chegarasini qamrab oladi: "Tasavvuf davomli suratda rivojlanib bordi va tasavvuf tarixida Irfon bosqichi (X-XIII asrlar) mumtoz davr sifatida qabul qilindi"⁴. IX-XIII asrlarni "tasavvufning klassik davri" deb atagan tasavvufshunos olim N.Komilov XIII-XIV asrlarni tasavvufning "falsafalanish" davri sifatida ko'rsatadi hamda bu davrda bir qator adiblar, orif sufiylar yetishib chiqqanligi, ular tasavvufni falsafa bilan bog'lovchilar deyilishi haqida qayd etadi: "Ibn al-Arabiy, Abu Homid Muhammad G'azzoliy, Farididdin Attor, Aziziddin Nasafiy, Yahyo Suhravardiy, Ibn Samoin, Abdurazzoq Koshoniy, Abdulkarim Jiliy, Mahmud Shabustariy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Bedil shunday mutafakkirlardir. Bularning ijodida olam va odam haqida o'ylar, qazo-vu qadar, erk va ixtiyor, suvrat va ma'no, aql var uh, vaqt va zamon, inson tiynati xususida ko'plab yangi qarashlar bayon etilgan. Bu zotlar ilohiyshunoslikni butunlay yangi pog'onaga ko'tardilar, ularning asarlarida insoniy ma'rifat insoniy kechinmalar tasviri va tahlili bilan olib borildi, komil inson xislatlari batafsil ishlab chiqildi"⁵.

Demak, XV asrda, yani Alisher Navoiy yashagan davrda tasavvufning nazariy-amaliy asoslari to'la shakllanib ulgurgan edi. XV-XVI asrlarda Movarounnahr va Xurosonda naqshbandiya tariqati tom ma'noda yoyilgach, badiiy adabiyotda ham shu maslak yo'lidan borish, badiiy g'oyalarni shu silsiladan oziqlangan holda ifodalash yetakchilik qildi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Alisher Navoiy davrigacha bo'lgan tasavvufiy adabiyotning davrlashtirilishini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

<i>Bos-qich</i>	<i>Ma'naviy takomil bosqichlari</i>	<i>Tarixiy davr</i>	<i>Tili</i>	<i>Yo'nalish</i>	<i>Vakillari</i> ⁶
I	Sunna	VIII-IX asrlar	Arab	Zuhd,tavhid, faqr-fano	Robiya al-Adaviya, Mansur Halloj
II	Islom ma'rifatchiligi yoxud Irfon	X-XII asrlar	Arab, forsiy va turkiy	Ilm, tafakkur, aql; xamriyot, zuhdiyot	Abu Abdulloh Rudakiy, Ibn Sino, Asadi Tusiy, Nosir Xisrav, Abdulla Ansoriy, Umar Xayyom, Abdulmajid Sanoyi', Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Anvari
III	Tasavvufning falsafalanish davri	XIII-XIV asrlar	Forsiy, turkiy	Falsafa va hikmat, Vahdat ul-vijid	Najmiddin Kubro, Farididdin Attor, Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumiy, Faxriddin Iroqiy, Yunus Emro, Xusrav Dehlaviy, Kamol Xo'jandiy, Hafoz

⁴ Ислам тасаввуфи манбалари. Тузувчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи филология фанлари доктори, профессор Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент, "Ўқитувчи" нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005. 16-бет.

⁵ Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент, "Ўзбекистон", 2009. 249-бет.

⁶ Jadvalning ushbu ustuni muallif tomonidan to'ldirildi.

					Sheroziy
IV	Tasavvufning gullash davri	XV asrlar	Forsiy, turkiy	Irfoniy va ijtimoiy muammolar uyg'unligi Tajrubalarni o'zlashtirish, sharh-u tafsir qilish, targ'ibot	Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshq.

Dastlab tasavvufda tavhid asoslarini chuqurlashtirishga alohida e'tibor berilgani, fano va baqo, Haq vasliga yetish mayli kabi holatlar adabiyotda ham ko'zga tashlanadi. Tasavvuf tarixida ilk sufiylardan deb e'tirof etiladigan Robia al-Adaviya⁷ (713/718-801) Alloh vasliga yetishish, zuhd-u ibodatni tama uchun emas, qalbdan faqat Alloh yo'lida bo'lishi, o'z jismini tark etib, Tavhid ruhi bilan yashah haqidagi fikrlari bilan mashhur bo'lib, shuningdek uning ilohiy qo'shiqlari mumtoz adabiyotdagi munajat janrini boshlab bergan. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" asarining "Islom bobida" deb nomlangan ikkinchi maqolotiga ilova tarzida Ibrohim Adham va Robiya al-Adaviyaning ilohiy e'tiqodi bilan bog'liq hikoyatni keltiradi. Robiya al-Adaviyaning "Bo'ldi ishing arzi namoz aylamak, Sheva manga arzi niyoz aylamak. Sanga samar berdi namoz-u riyo, Bizga bu bar berdi niyoz-u fano"⁸ degan so'zlari orqali Ilohga bo'lgan chin ixlos va muhabbat har qanday ibodatdan afzal ekanligi haqidagi xulosa chiqariladi. Undan tashqari, Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida ham "Robiai Adaviya (r.a.)" nomli maxsus maqola berib o'tadi va sufiy ayolning ilohiy ishqqa to'liq qalbi Sufyon Savriy (r.a.) bilan suhbatini orqali ifoda etiladi⁹.

Undan tashqari, sharqshunos olim Y.Bertels IX asrda Abu Nasr as-Saraj (vaf.988)ning "Kitob al-luma' fit-tasavvuf" kitobida sufiyona ruhdagi ko'p sonli arabcha she'rlar yetib kelganligini qayd etadi va namunalar keltiradi¹⁰. Fano va tavidga munosabatda alohida e'tiborga ega Husayn ibn Mansur al-Halloj (858-922) ga nisbat berilgan forsiy she'rlar talaygina bo'lib, uning ta'limotida tajalli, azal, surat haqidagi qarashlash rivojlangan. F.Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarida, A.Jomiy va A.Navoiy tazkiralarida Mansur Halloj qismati bilan bog'liq voqealar bayon qilingan. Jumladan, "Nasoyim ul-muhabbat" asarida uning hayotiga va e'tiqodiga oid ma'lumotlar, ayrim karomatlari, bu sufiyning "ishida muxtaliif"lar, boshqa mashoyixlarning unga munosabatlari, uni qo'llagan va qarshi chiqqanlar, o'zga sufiylar bilan suhbatlari, nihoyat, o'limi bilan bog'liq ma'lumotlar keltiriladi¹¹. "Mahbub ul-qulub" asarida "Zikr sharhida" mavzusi haqida fikrlar bayon qilingach, shayx Abdulla Ansoriyning Mansur Halloj zikriga munosabati bayon qilingan hikoyat ilova qilinadi: "Muqarrabi Hazrati boriy Xoja Abdulloh Ansoriy (quddisa sirruhu) dedikim, ul takallumg'akim Mansur dam urdi, men ham urdum. Ul oshkor etti va men yoshurdum. Menkim yoshurdum, tojdorlig' manqarib bo'ldi. Ul oshkor etti, dorg'a tok bo'lmoqlik nasib bo'ldi. Ul hanuz xom erdi va bu ma'nidin xurush qiluri behangom erdi. Eshitguvchi ibo etti va anga yetti va ulcha yetti. Men ul so'zni anjumanda guhor etarmen va izhorida isror va takror etarmen, hech kas manga nima dey olmas va demaskim, so'zumning agarchi ma'nisi uldur, ammo suvrati ul emaskim, suvrat

⁷ Manbalarda bu nom turlicha ko'rinishlarda kelgan. Jumladan, Alisher Navoiy asarlarida Robia Adviya, Robiai Adaviya shaklida qo'llangan.

⁸ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. Hayrat ul-abror. – Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 102-bet

⁹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 490-bet.

¹⁰ Бертельс Е.Б. Сўфизм ва тасаввуф адабиёти. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. Тошкент, "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" нашриёти, 205. 84-бет.

¹¹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 178-bet.

ahli suvratga nazar solurlar va ma'ni ahli ma'nidin bahra olurlar"¹². Ushbu asarning til odobi bilan bog'liq tanbehi xulosasida ham aslida ma'ni ahlidan bo'lgan, lekin surat ahlining tasavvur va tafakkuriga sig'magan Mansur Halloj taqdiri misol qilib keltiriladi: "Husayn Mansur til sur'atidin dorg'a sazovor"¹³. "Lison ut-tayr" dostonida tavhid vodiysi ta'rifidab so'ng Mansur Halloj bilan bog'liq hikoyat (CLVIII bob) keltiriladi va uning tariqatiga, suluki ta'rifi, hol va maqomiga to'xtalib o'tadi¹⁴.

Demak, Alisher Navoiy Robiya al-Adaviya, Mansur Halloj qismati bilan bog'liq lavhalardan asarlarida keltirish orqali nafaqat badiiy g'oyani ifodalagan, balki o'zining sufiylikka oid qarashlari, munosabatlarini ham ishora qilib o'tgan.

Tasavvuf Sharqqa keng tarqalib, arab, fors va turkiy tillarda buyuk bir she'riyatni vujudga keltirdi. "VIII-XI asrlarda Robia al-Adaviya, Mansur Halloj singari ulug' so'fiylar ijodi bilan boshlangan so'fiyona ash'or X-XII asrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi, o'ziga xos obrazlar, timsollar olami, alohida ramzlar, uslub va usullar shakllandi"¹⁵.

Tasavvufning badiiy adabiyot bilan yaqinlashuvida o'z davrining mashhur shayxlaridan bo'lgan Abu Sayyid ibn Abulxayr (967-1049)ning samoviy majlislarida, yig'inlarida muridlariga o'qib bergan to'rtlik, ruboiy va g'azallarning o'rni bor. Bunday she'rlar, asosan, Junayd, Birohim al-Havass, Abul Qosim Bishr ibn Yasin va shu kabi shoirlar qalamiga mansub. Y.Bertels yana shuni qayd etadiki, bunday majlislarda, shayxlar va'zlarida forsha she'rlar, shuningdek Qur'on oyatlari va hadislar mazmuniga monand hikoyatlar ham aytila boshlangan. Bu she'r namunalari xos umumiy xususiyatlar ularning soddaligi, tabiiyligi va xalq ijodiyotiga yaqinligidir. Shuningdek, ularda xalq she'riyatiga xos jo'shqinlik, so'z ohangdorligi keng taraqqiy etganligi, takrorlar, omonimlar, o'ynoqi qofiya, uzun radiflarni tez-tez qo'llash kuzatilganligi ham qayd etilgan¹⁶.

N.Komilov Bertelsning fikrlarini inkor etmagan holda mazkur jarayonni tasavvufning adabiyotga yaqinlashuvi sifatida baholaydi hamda bu holatni to'ldirib, nutqni oyat, hadis va she'riy hikmatlar bilan bezab, uning mazmunli va ta'sirchan bo'lishiga harakat qilish samo'ni yoqtirmaydigan yoki unga beparvo qaraydigan xilvatnashin shayxlar suhbatida ham rasm bo'lganligini yozadi hamda manbalarda Robiya Adaviya, Mansur Halloj, Boyazid Bistomiy, Abu Said Abul Xayr, Abdulloh Ansoriy, Abul Hasan Xaraqoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband kabi shayxlar haqida bu borada ma'lumotlar qayd etilganligini aytib o'tadi. Shuningdek, olim adabiyotning tasavvufga yaqinlashuvi borasida ham qarashlarini bayon qiladi: "Gap shundaki, adabiyot ham tasavvuf tomonga qarab intilgan. Tasavvuf g'oyalari keng tarqalgandan keyin u gumanist shoirlarning qalbini rom etdi. Tasavvufning pok ilohiy ishq haqidagi, Haq va haqiqat, najib insoniy xislatlar, kamolot kasb etish haqidagi g'oyalari she'riyat g'oyalariga aylandi — shoirlar qizg'in bir ruh, ko'ngil amri bilan irfoniy g'oyalarni kuyladilar, hisobsiz lirik she'rlar, jahonga mashhur dostonlar, qissalar yaratildi. Tasavvufning bexudlik va ishq konsepsiyasi, soflik, adolat va haqiqat timsoli — Mutlaq ilohga muhabbat zavqi ijod ahliga qattiq ta'sir etdi, insoniyat g'ami bilan qalbi dardga to'lgan isyonkor ruhdagi shoirlarni bir ohanraboday o'ziga tortib, o'rtanishli, his-hayajonga serob ajoyib she'riyatni vujudga keltirdi. Bu she'riyatning markaziy qahramoni — rindi bebok, Mansur Halloj e'tiqodiga imon keltirgan, o'zini barkamollik cho'qqisida ko'rgan, ruhan ozod kishi edi. Uning zavqi, iztirob-kechinmalari, xayoliy romantik olamga intilishi maxsus ifodalar va ko'p

¹² Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. Mahbub ul-qulub. — Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 493-bet

¹³ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. Mahbub ul-qulub. — Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 518-bet.

¹⁴ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. Lison ut-tayr. — Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 223-bet

¹⁵ Комилов Н. Тасаввуф. — Тошкент, "Ўзбекистон", 2009. 139-бет.

¹⁶ Бертельс Е.Б. Сўфизм ва тасаввуф адабиёти. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. Тошкент, "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" нашриёти, 205. 93-бет.

ma'noli ramziy iboralar bilan tasvirlanadigan bo'ldi"¹⁷.

Demak, tasavvuf va adabiyot ko'ngil manzillarini obodligi, vujud pokizaligiga va qalb shaffofligiga erishish, dunyoviy mayllar va nafsoniy istaklardan yuqori bo'lgan darajaga yetish, ruhiy barkamollik va erkinlik cho'qqisiga chiqish g'oyalari bilan bir-biriga yaqinlashadi, natijada din va falsafa, Qur'on va hadis, hikmat, Vahdat va badiiyat ilmlari birlashtiriladi, ilohiy ma'rifat bilan dunyoviy ilmlar bir nuqtada markazlashtiriladi. Badiiy adabiyot manbalarida islomiy g'oyalar, e'tiqod masalalarining in'ikos eta boshlaydi. Irfoniy-tasavvufiy mavzularning adabiyot vakillari ijodiga aks etishini misollarda ko'rib o'tamiz.

“Odam ush-shuaro” (shoirlarning Odam Atosi) degan nom bilan shuhrat qozongan Abu Abdulloh Ja'far ibn Muhammad Ro'dakiy (858-941) she'riyatida dunyoning tuzilishi, hayot hodisalari, inson fe'l-atvori, xatti-harakatlari haqida falsafiy xulosalar chiqarish, pand-nasihat yetakchi xususiyat sanalgani holda ijodida irfoniy tushunchalar ham uchraydi. Jumladan, bir ruboiysida shoir shunday deydiki, misralardagi fikrlar mazmunan solikning shukr, rizo va faqr maqomlarini yodga soladi:

Ko'n boriga-yu Haqni etib yod yasha!

Dil berma takallufga-yu ozod yasha!

G'am chekma sira ko'rib o'zingdan boyni,

Sendan-da faqirlarni ko'rib, shod yasha!¹⁸

To'liq ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino (980-1037) bo'lgan vatandoshimiz qomusiy olim sifatida juda mashhur. Ibn Sinodek buyuk zot faoliyatining bizning mavzumizga daxldor tomoni shundaki, bu o'tkir qobiliyat egasi Qur'onni qiroat bilan o'qib, yodlash uchun bir yilgina vaqt sarflaydi. Ibn Sino “Al-ishorat vat-tanbihot” (“Ko'rsatma va tanbehlar”) asarida tasavvuf olimi sifatida sufiylik amaliyotining ruhoni asoslarini ochib bergan bo'lsa, uning “Risalat at-tayr”, “Solomon va Ibsol”, “Hayy ibn Yaqzon” nomli badiiy nasr namunalari bo'lgan asarlarida ramzlar orqali sufiyona ma'rifatga erishish yo'llari tasvirlanadi. “Yusuf qissasi” Qur'on sujeti asosida yartilgan shu mavzudagi birinchi asar sanalsa, “Risala fil-ishq” asarida muhabbat mavzusi aynan irfoniy mazmunda talqin qilinadi. Ibn Sinoning yuqorida tilga olingan asarlari X-XII asrlarda nafaqat tasavvufiy adabiyotning, balki badiiy nasrning yuksak namunalari sifatida tan olindi¹⁹.

Abu Nasr Asadi Tusiy (vafoti 1070-yil) fors-tojik adabiyotidagi ilk yozma munozaralar (“Yer va osmon”, “Kecha va kunduz”, “Nayza va kamon”, “Musulmon va kofir”, “Arab va ajam”) muallifi sifatida e'tirof etilar ekan, uning asarlarida, xususan, “Musulmon va kofir”, “Arab va ajam”ida muallifning irfoniy qarashlari aks etganini kuzatish mumkin.

Bu davr fors-tojik adabiyotining yana bir vakili Nosir Xusrav (1004-1088) ning «Zod al-musofirin», «Vajhi din» (Dinning qiyofasi), «Jomi al-hikmatayn» (Ikki hikmat uyg'unligi), «Ravshannoma» (Nur kitobi), «Saodatnoma» kitoblarida diniy-falsafiy muammolar, shuningdek ilg'or axloqiy-tarbiyaviy fikrlar olg'a surilgan, she'rlarida yuksak insoniy fazilatlar ulug'langan. Shoir Borliq haqiqatini botiniya yo'nalishida idrok etishga uringan mutafakkirlardandir.

Buyuk so'fiy, “Piri Hirot”, “Shayx ul- mashoyix”, “Shayx ul-islom” nomlari bilan mashhur bo'lgan alloma Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy (1006-1088) – arab va fors tillarida yaratilgan tasavvufga oid bir qancha kitoblar muallifi, tasavvufiy mavzudagi didaktik dostonchilik va she'riyat, shuningdek saj'li nasr shakllanishida alohida o'ringa ega ijodkor. Abdulloh Ansoriyning “Tabaqot us-so'fiya” (“So'fiylikning maqomlari”) nomli asarida tasavvufga nafaqat ilm va axloqiy yo'nalish, balki buyuk

¹⁷ Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2009. 139-бет.

¹⁸ <https://n.ziyouz.com>

¹⁹ Bu haqda qarang: Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2009, 249-бет. Болтабоев Х. Ислom тасаввуфи манбалари. Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005, 17-бет.

bir ma'naviy qudrat sifatida adabiy qimmat berilsa, qur'oniy mazmundagi "Qissayi Yusuf" sujeti yangicha talqin qilinib, «Anis ul-muridin» asari yaratildi. Shuningdek, uning "Munojot"i juda mashhurdir. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi "Abu Ismoil Abdulloh b. Abu Mansur Muhammad Ansoriy Hiraviy q. s." nomli maqolada u zotning hayoti va faoliyati, shuningdek ijodkorlik qobiliyati bilan bog'liq lavhalarni bayon qiladi²⁰. "Mahbub ul-qulub" asaridagi "Shayx ul-islom zikrida" bobida esa mazkur toifaning sifatleri, bu lavozim egasiga qo'yiladigan mansab talablari haqida to'xtalib o'tar ekan, Hirot zaminidan o'tgan va Haq dargohiga yetgan Allohga qurbat, ya'ni yaqinlik hosil qilgan Abdulla Ansoriyni haqiqiy shayx ul-islomlikka munosib zot bo'lganligini e'tirof etadi: "Mundin o'ldi muqarrabi Boriy, Shayx ul-islom piri Ansoriy"²¹. Shuningdek, "Lison ut-tayr"da keltirilgan baytlar ham Abdulla Ansoriyning salohiyatini, Alisher Navoiyning bu ulug' zotga mehri, munosabati, hurmati qanchalik bo'lganini ko'rsatib turadi: "Xoja Abdulloh Ansoriyki, aql Aylay olmas ming ishidin birni naql"²². Bunday ma'lumotlarni o'qib, Navoiy umrining so'nggi yillarida bu ulug' pining xonaqohida jorubkashlik qilmoqni tilagani bejiz emasligini anglab yetish mumkin.

Umar Xayyom (1048-1131) ning ruboiylari jahon adabiyotidagi nodir durdonalar qatorida mavzu doirasining kengligi, falsafiy teranligi, badiiy yuksakligi bilan haligacha butun insoniyat ma'naviyatiga kuchli ta'sir o'tkazib kelmoqda. Uning she'riyatida may timsoli esa irfoniy-tasavvufiy ma'no kasb etganligi bilan ahamiyatlidir.

Fors mumtoz shoirlari ichida birinchilardan bo'lib saroy va madhiyago'ylikni tark etib, she'riyatga jiddiy falsafiy-ijtimoiy va axloqiy masalalarni olib kirgan Abdulmajid Sanoyi (1048-1140) o'zining "Sayr ul-ibod ilal-maod" ("Alloh bandalarining qaytar makonga safari") va adabiyotda tasavvuf qomusi deb ataladigan 12 ming baytdan iborat "Hadoyiq ul-haqiqat" ("Haqiqat bog'lari") dostonlari bilan poetikada sufilyikka yaqin bo'lgan yangicha yo'nalishni boshlab berdi. Alisher Navoiy bu shoirmi "haqiqat asrorig'a majoz tariqini maxlut (aralash)" qilgan va bu uslubda marbut etgan (aloqador asar bitgan adiblar qatorida "tasavvuf va diqqat mushkilotining girihkushoyi (tugunlarini yechuvchisi, hal qiluvchisi)"²³ degan yuksak ta'rif bilan sanab o'tadi.

Turkiy badiiy adabiyotda ilk bor sufiyona qarashlar kengroq muhokama qilingan asar sifatida Yusuf Xos Hojib (XI asr) ning "Qutadg'u bilig" dostoni tilga olinadi. Ushbu asar turkiy yozma adabiyotda dostonchilik an'anasini boshlab bergan ilk manbadir. Asarning tasmiya, hamd, na't, manqabat bilan boshlanishining o'ziyoq irfoniy-tasavvufiy ma'nolarning badiiy adabiyotda zuhur etishini ko'rsatadi. "Qutadg'u bilig"dagi O'zg'urmish obrazi tarkidunyo qilgan zohid timsoli bo'lib gavdalandiriladi va, asosan, muallifning islomiy qarashlari aynan shu obraz tilidan bayon qilinadi. O'zgurmish falsafasining bosh g'oyasi "Tanni emas, ruhni boyitish kerak" hukmatidir. "Qutadg'u bilig" asarida keltirilgan hadislar ham islomiy g'oyalarning badiiy adabiyot namunalari mazmunida bevosita in'ikos eta boshlaganini ko'rsatadi.

Adib Ahmad binni Mahmud Yugnakiy (XII–XIII asr) - yirik adib, buyuk shoir, ta'limiy didaktik adabiyot namoyandasi, hadisshunos. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida bu zot haqida qimmatli fikrlarni yozib qoldiradi: "Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g'arib (qiziqarli) nimalar manquldur (naql qilingan). Derlarki, ko'zlari butov (yopiq) ermishki, aslo zohir ermas ermish. Basir (ko'zi ojiz) bo'lub, o'zga basirlardek andoq emas ermishki, ko'z bo'lg'ay va ko'rmas bo'lg'ay. Ammo bag'oyat ziyrak va zakiy (aqlli) va zohid va muttaqiy (taqvodor,

²⁰ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 279-bet.

²¹ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 461-bet.

²² Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. Lison ut-tayr. – Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 193-bet.

²³ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 465-bet.

parhezkor) kishi erish. Haq s. t. agarchi zohir ko‘zin yopuq yaratqandur, ammo ko‘ngli ko‘zin bag‘oyat yoruq qilg‘ondur... Va aning tili turk alfozi bila mavoiz-u nasoyihqa (va‘z-u nasihatlariga) go‘yo (biyron, yetuk) erish. Xeyli elning muqtadosi (piri) erish. Balki aksar turk ulusida hikmat-u nukta (nozik ma‘noli so‘z)lari shoye’ (mashhur)dur”²⁴. Adibdan qolgan yagona adabiy meros - “Hibatul-haqoyiq” (“Haqiqat sovg‘alari”) asari hajman uncha katta bo‘lmasa-da, Qur‘on va Hadis hikmatlarining badiiy sharhi ekanligi, muqaddimasi hamd, na‘t, manqabat bilan boshlanganligi, matnida ko‘plab hadislardan foydalanilganligi bilan irfoniy-tasavvufiy adabiyotning nodir namunasi sifatida qimmatli manba ekanligini anglatadi.

Avvalo, Islom dini, sal keyinroq Qur‘oni karim va hadisi shariflardan sunniy ko‘rsatmalardan oziqlangan tasavvuf ilmi va poetikaning uyg‘un namunasi sanalgan irfoniy-tasavvufiy adabiyotning yirik vakili, shubhasiz, mutasavvuf shoir Ahmad Yassaviy (vaf.1166) bo‘ldi. Tasavvufdagi to‘rt asosiy bosqich – shariat, tariqat, ma‘rifat, haqiqat mohiyatini she‘riy misralariga singdirgan adib tasavvufni inson ma‘naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida biladi. Shoir nazdida eng to‘g‘ri yo‘l o‘zlikni va u orqali haqiqatni anglashga olib bormog‘i kerak. Bunga erishish uchun kishi Haq yo‘liga kirmog‘i, Allohga muhabbat paydo qila bilmog‘i, butun kuch va vujudini shu yo‘lga qaratmog‘i va nafs ammorani yengmog‘i lozim. “Devoni hikmat”da ilohiy ishq g‘oyasi va ma‘rifiy mazmun yetakchilik qiladi. Yassaviy hikmatlari ma‘no va mohiyat e‘tibori bilan Qur‘oni karim va Muhammad alayhissalom hadislariga asoslangan. Ahmad Yassaviy she‘riyatidagi ummat, rasul, iymon, shayton, pir, darvesh, oshiq, obid, zohid, oqil, ishq, tolib kabi obrazlar bevosita tasavvuf bilan bog‘liq. A.Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi “Xoja Ahmad Yassaviy q. t. s.” nomli maqolasida bu zotni “Turkiston mulking shayx ul-mashoyixi”, “maqomoti oliy va mashhur, karomoti mutavoli (sarkor) va nomahsur (cheksiz)”²⁵ deya ta‘riflaydi hamda murshid-u muridlarining ayrimlari to‘g‘risida ma‘lumot berib o‘tadi, lekin mutasavvufning shoirlik faoliyati haqida to‘xtalmaydi. Ahmad Yassaviyning nodir merosi “Devoni hikmat” nomi bilan bizgacha yetib kelgan.

Ahmad Yassaviy tariqatining davomchisi, tasavvufning yirik namoyandasi, shoir Sulaymon Boqirg‘oniy (vaf.1186) o‘z asarlarida ma‘rifatni Allohni tanish, uning nazariga tushish deb bilgan, islomni, shariat va tariqat qoidalarini targ‘ib qilgan. Shoir tariqat yo‘lini komil insonni tarbiyalash yo‘li, jannatga eltuvchi yo‘l deb hisoblaydi va oliy muhabbatni Allohga bo‘lgan muhabbat deb tushuntiradi. “Boqirg‘on kitobi” nomli she‘rlar to‘plami hamda “Bibi Maryam kitobi”, “Oxir zamon kitobi” kabi dostonlarida tasavvufiy qarshlari o‘z ifodasini topgan. A.Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida bu zot hayoti bilan bog‘liq qisqacha ma‘lumot berib, ijodi haqida ham iliq munosabat bildirib, irfoniy qarashlari aks etgan bir she‘rini ilova sifatida keltiradi: “Oti Sulaymondur va Xoja Ahmad Yassaviy q. s. ning murididir. ... Hakim atog‘a hikmat tili go‘yo bo‘lubdur. Andoqi, oning favoidi atrok arosida mashhurdur. Ul jumladin biri budurkim:

Tiki turg‘on butadur,

Borgonlarni yutadur.

Borgonlar kelmas bo‘ldi,

Magar manzil andadur”²⁶.

“Faridi ahli yaqin” (Navoiy) Shayx Avhadiddin — Avhadiddin Ali ibni Muhammad ibni Is‘hoq Anvari (1105-1187) shoir va mutafakkir, zamonasidagi turli ilmlardan nujum, handasa, hikmat, tib, falsafa bilimdoni, “qasida payg‘ambari” deya ta‘riflangan zot. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-

²⁴ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 440-bet.

²⁵ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 433-bet.

²⁶ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 434-bet.

muhabbat” asarida uning shayx Avhaduddin Kirmoniyning sahobalaridan va taxallusi ham shundan ekanligi, yaxshi masnaviylari borligi, “Jomi Jam” masnaviysida “ko‘p latoyif” darj qilingani, qasidalarga javob yozgani haqida to‘xtalib, ijodidan bir qancha namunalar keltirsa, “Muhokamat ul-lug‘atayn”da Anvariyning daqiq fikrlari she‘riyat ixlosmandlari orasida mashhur-u muhokamalar ichra ekanligini qayd etadi²⁷.

O‘z zamonasi ilm-u irfonida benazir olim va shoir Najmiddin Kubro (1145-1221) dunyoviy va botiniy bilimlar, g‘ayb asrorini o‘rgangan ulkan alloma sifatida kishi ruhiyatini chuqur tahlil qilib, inson ruhi ko‘zga ko‘rinmas, latif markazlardan iborat ekanligini kashf etgan va “latoyif nazariyasi”ni ishlab chiqqan. Najmiddin Kubroning «Al-usul al-ashara» («O‘n usul»), «Risolayi Najmiddin» asarlarida insonlarni gunohdan tiyilish, yomonlikka boshlovchi nafsga mag‘lubiyat alamini tottirish, nafs devini yengish va sabr-qanoatli bo‘lishga chaqiradi. Najmiddin Kubroning fikricha, ma‘naviy tubanlik va insonlikni yemiradigan illatlarni nafs keltirib chiqaradi uni yenggan kishi qanoat mulkning sohibqironi bo‘lib, poklik xazinasini qo‘lga kiritadi²⁸. Alisher Navoiy N.Kubroning hayoti, karomatlari haqida “Nasoyim ul-muhabbat” asarida bir qancha ma‘lumotlarni berib o‘tadi²⁹. “Lison ut-tayr” dostonida (86-bob) bir qushning Hudhudga: “Jismimiz bir, lekin nega sen boxabar-u biz bexabar?” – deb bergan savoliga javoban “Shayx Najmiddin Kubroning so‘zi va itga tushgan ko‘zi” nomli hikoyat keltiriladi³⁰. Unda N.Kubro “qutbi dahr” degan nisbat bilan ulug‘lanib, uning nazari tushgan banda valiylik maqomiga erishishi haqida bayon qilinadi. Ulug‘ shayxning sukra holatida bir itga nazari tushishi va natijada o‘sha itning boshqa jinsdoshlariga shohlik, o‘z xayliga sardorlik holatiga yetgani, uning vafotidan keyin dafn etilgani to‘g‘risida hikoya qiluvchi bu bobda “valiylar nazari hatto itga kishilik nishonalarini paydo qilishi, bunday qissa tarixda “as‘hobi kahf” itining taqdirida ham kuzatilgani, buning barchasi Hayyi mujibning inoyati ekani haqidagi xulosa bilan yakunlanadi. Demak, inson valiy zotlardan yetuvchi quvvat bilan yuksak darajalarga erishishi mumkin.

Sermahsul mutasavvuf shoir, “Muxtornoma” ruboiylar to‘plami, “Mantiq ut-tayr”, “Xusravnoma”, “Asrornoma”, “Ilohiynoma”, “Musibatnoma”, “Bulbulnoma”, “Ushturnoma”, “Javhar uz-zot” dostonlari va “Tazkirat ul-avliyo” tazkirasi muallifi Farididdin Abuhomid Muhammad ibn Abubakr binni Ibrohim Nishopuriy **Attor** (1136/47-1229) ning tasavvuf adabiyotidagi maqomi yuksak. Uning ijodi, xususan, so‘fiyona ruh va mazmunga yo‘g‘rilgan ruboiylari Allohni ulug‘lash, ilohiy ishqni avj pardada kuylash, insonlik mohiyatini anglash, kamolot yo‘lida parda bo‘lgan jism, nafs va dunyoni mazammal qilish, ma‘shuqa ta‘rif-tavsifi, visol umidi-yu, ayriliq azoblari tasviriga bag‘ishlangani bilan ijodiyotda Husayn ibn Mansur al-Halloj, Boyazid Bistomiy ta‘limotining davomchisi sanaladi. Attor – ilohiy ishqni qaqnus kabi yonib kuylovchi, atrofga alanga taratuvchi yoniq harorat sohibi, balki haroratning o‘zi, tavhid ilmini she‘riy til bilan tafsir etgan zot. Attor falsafasining asosini tavhid (Allohning yagonaligini tan olish) ilmi tashkil etadi. Unga ko‘ra, tavhid faqat Allohning yagonaligini tan olish emas, balki u bilan qo‘shilishga harakat qilish, ya‘ni insonning mutlaq Ruh tomon intilishini anglatadigan jarayondir. Tasavvufda salaflari kabi irfon g‘oyalarini hayajonli, qaynoq bir ehtiros bilan bayon etdi. Buyuk mutasavvufning “Bulbulnoma“, “Mantiq ut-tayr“, “Ushturnoma“ asarlarida ramziy-majoziy timsollar, “Javhar uz-zot“, “Hayloj“, “Asrornoma“, “Sharh ul-qalb“, “Musibatnoma“ kabi dostonlarida bevosita muhokama-mushohada, fikriy-shuuriy bayonlar yetakchilik qiladi. Uning asarlarida olam Allohning tajalliysi ekanligi, U o‘z borlig‘ida pinhon-u paydo, barcha ashyolar yagona Javhardan kelib chiqqanligi ta‘kidlanadi. “Xusravnoma“ asarida majoziy ishq kuylansa, Alisher Navoiy xayolini bolalikdanoq band qilgan

²⁷ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Muhokamat ul-lug‘atayn. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 526-bet.

²⁸ Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2009. 399-бет.

²⁹ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 326-bet.

³⁰ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 9-jild. Lison ut-tayr. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 135-bet.

“Mantiq ut-tayr” asari tasavvufning eng yirik adabiy yodgorligi hisoblanadi. Abdurahmon Jomiy, Davlatshoh Samarqandiy, Alisher Navoiyning kitoblari Fariddin Attor hayoti va ijodiyoti haqida ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, Navoiy F.Attorni “nozimi javohiri asror”, “maqsadlari nazmdan asrori ilohiy adosi va ma’rifati nomutanohiy (cheksiz, bitmas-tuganmas) imlosidan o‘zga yo‘q”³¹ deya qayd etadi. “Lison ut-tayr” dostonida F.Attorga “Qudvat ul-ahror va qiblat ul-abror Shayx Fariddin Attor qaddasallohu ruhahug‘a madh-u sano og‘ozi va o‘z arzi niyozi” deb nomlangan alohida bob (13-bob) bag‘ishlanadi va mutafakkirning taxallusi bilan so‘z o‘yini yasab, 41 baytda uning “do‘kon”ini ta’rif-u tavsif etadi, o‘zining allomaga izdoshligiga ishora qiladi³².

Asl ismi sharifi Abu Muhammad Ilyos ibn Yusuf ibn Zakii Muayyad bo‘lgan buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri, “nodiri zamon”³³ Nizomiy Ganjaviy (1141-1202) adabiy merosi lirik va epik asarlardan ibora bo‘lib, adabiyotshunoslikda xamsanavislikni boshlab bergan o‘ttiz ming baytlik “Panj ganj”i bilan jahonga mashhur va buyuklarning buyuk ustoz bo‘ldi. Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi dostonlarning avvalgi boblarida uni ustoz sifatida faxr bilan ta’rif etsa, “Nasoyim ul-muhabbat”da uni shayxlar qatorida shaxsiy fazilatlarini va ijodiy sifatlarini ulug‘lab zikr etadi: “Alarga zohiriy ulumi va rasmiy istiloxotdin bahrayi tamom bor ermish. Ammo barchadin ilik tortib Haq s.t.g‘a yuz kelturubdurlar. Umri garonmoya (asl umr)ni avvaldin oxirg‘acha qanoat-u taqvo va uzlat-u inzivo (xilvatnashinlik) bila o‘tkaribdurlar va hargiz soyir shuarodek hirs-u havo g‘alabasidin dunyo arbobig‘a iltijo qilmaydurlar... va nazmlar agar zohir yuzidin afsonadur, ammo haqiqat yuzidin haqoyiq kashfi va maorif bayonig‘a bahonadur”³⁴. Shuningdek, “Majolis un-nafois”da Nizomiy Ganjaviy asarlariga nazira bog‘lagan, uning ijodidan ilhom olgan ijodkorlar nomini ham keltiradiki, bu Nizomiyning nechog‘liq qalbgaga yaqin, haqiqat asrorini anglagan badiiy adabiyot ustunlaridan ekanligini isbot etadi.

Fors-tojik adabiyotining nodir siymosi – shoir, adib va mutafakkir shayx, “g‘azalda muxtarii vaqt”³⁵ Muslihiddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Mushrifiddin Sa’diy Sheroziy (1189/1203-1292) kalom, tafsir, fiqh ilmlari, arab tili grammatikasi, arab va fors adabiyoti, falsafa, mantiq, tarix, tibbiyot hamda boshqa fanlarni puxta o‘rgangan, mutasavvuf olim va adib Shahobiddin Suhravardiy hamda yirik ilohiyot allomasi Abulfaraj Abdurahmon ibn Javziydan saboq olgan. Sa’diy goh olim-u voiz, goh so‘fiy-u darvesh qiyofasida Eron, Arabiston, Kichik Osiyo, Misr, Xuroson, Sharqiy Turkiston kabi qator mamlakatlarni 20 yildan ko‘proq vaqt mobaynida kezib chiqqan, sayohatlar davomida u zot hayot ilmini chuqur o‘rganib, inson fe’li va ruhiyatini butun murakkabligi bilan anglab, o‘z davrining ko‘pni ko‘rgan donishmand allomasi bo‘lib yetishadi. XIII asrning o‘rtalarida Sherozga qaytib kelgan shoir dunyo tashvishlaridan o‘zini chetga olib, shahar chekkasidagi shayx Abu Abdulloh Hafif xonaqosida faqirona hayot kechiradi. Sa’diy Sheroziy badiiy ijodda o‘zidan oldingi an‘analarni takomillastirdi, yangilarini yaratdi, keyingi avlodga ilhom manbayi bo‘lib xizmat qildi. Alisher Navoiy ham asarlarida bu ulug‘ zotning nomini juda ko‘p o‘rinlarda tilga olib o‘tadi. Xususan, “Mahbub ul-qulub” asari bevosita Sa’diy Sheroziyning “Guliston”i ta’sirida yaratilgan bo‘lsa, “Devoni Foni”da ulug‘ shoir g‘azaliga yozilgan 22 ga tatabbu’, uning tavrada 4 ta g‘azal keltirilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy bu ma’naviy ustozini “maoniy ahlining

³¹ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 9-jild. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 464-bet.

³² Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 9-jild. Lison ut-tayr. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 29-bet.

³³ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Muhakamat ul-lug‘atayn. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 527-bet.

³⁴ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 477-bet.

³⁵ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Muhakamat ul-lug‘atayn. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 527-bet.

nuktapardozi”³⁶ deya sifatlaydi. “Lison ut-tayr” asarida Sa’diyning “Guliston” va “Bo’ston” asarlarini sevib o’qiganligini qayd etadi.

Sufiylar va fiqh donishmandi Bahouddin Valad farzandi, Fariddin Attor hamda shoir va shayx Shams Tabriziyning shogirdi, tasavvufdagi mavlaviya tariqatining asoschisi, ulug’ donishmand, benazir ijodkor, mutafakkir va valiy zot Mavlono Jaloliddin Muhammad Balxiy Rumiy (1207-1273) tasavvuf, ilm-u hikmat, falsafa, she’riyat va ma’naviyatning mujassami bo’lgan tafakkur sohibi, Alisher Navoiy tomonidan ilohiy ishq kuychisi, buyuklikning ko’z ilg’amas cho’qqisi deb sharaflangan dahodir. Rumiy hazratlari g’azal, masnaviy, ruboiy kabi janrlardagi uch mingdan ortiq she’rlarni o’z ichiga olgan “Devoni kabir” (“Ulug’ devon”), “Makotib”, nasriy “Ichindagi ichindadir” (“Fihi mo fihi”) hamda Qur’oni karim va hadisi sharif ma’nolarini o’ziga singdirgan, falsafiy-so’fiyona mushohadalar, ruhiyat dialektikasi kashf etilib, inson aqlini lol qoldiradigan teranlik bilan yozilgan, inson hayoti bilan bog’liq barcha masalalar badiiy yo’sinda bayon etilgan mashhur “Masnaviyi ma’naviy” asarlari muallifidir. “Nasoyim ul-muhabbat” asarida J.Rumiyning ilohiyotga bolalikdan bog’langani, karomatlari, e’tiqotlari, kechmishlari haqida ma’lumotlar bayon qilinadi³⁷. “Mahbub ul-qulub” asarida esa Rumiy “qoyili “Masnaviyi ma’naviy”, “g’avvosi bahri yaqin” deya ta’rif erilib, F.Attor bilan ikkisining ijodiga “maqsadlari nazmdin asrori ilohiy adosi va ma’rifati nomutanohiy imlosidin o’zga yo’qdur” degan bahonni beradi³⁸.

Ulug’alloma, tasavvuf olimi va islom shoiri Faxriddin Iroqiy (1207-1289) asarlari Sharqda she’riyat ixlosmandlari, ziyolilar, darveshlar orasida juda mashhur bo’lgan va hatto Navoiydek zotni ham o’ziga muxlis etgan. “Nasoyim ul-muhabbat” asarida “Shayx Faxriddin Ibrohim Iroqiy q. s.” nomli maqolada shayxning hayoti, shaxsiy turmushi, tahsili, ustozlari, ilohiyotga oshnolik holati, mashhur “Lama’ot” asarining yaratilishi bilan bog’liq tarix bayon qilinadi³⁹. “Mahbub ul-qulub” asarida esa o’z zamonining mashhur shayx ul-mashoyixlaridan biri bo’lgan bu zotga juda yuksak baho berib, shunday yozadi: “Yana so’zi pok-u ko’zi pok ishq ahlida mujarrad (yakka) va munfarid (yagona) va bebok bu toifaning benazir-u adil va toqi faxr ul-millati va d-din Shayx Iroqiydurkim, ishq sifatig’a muttasifdur (sifatlangan) va “Lama’ot”i pok maoniy va tarokibig’a munsif (adolat)dur”⁴⁰ Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”da “Lama’ot” asari Shayx Ahmad G’azzoliyning “Savonih” kitobi uslubida yozilganini ta’kidlasa⁴¹, “Majolis un-nafois”da bu asar Abulqosim Boburning sevimli kitoblaridan biri bo’lganligini qayd qilgan. “Xamsat ul-mutahayyirin”da esa Iroqiyning “Lama’ot”i bo’yicha Jomiydan saboq olgani, “xo’bliklari yashurun qolg’on” bu kitobga Jomiy tomonidan sharh yozilgani haqida ma’lumot berilgan⁴². Shayx Faxriddin Iroqiyning qasida va g’azallarni o’z ichiga olgan 4800 baytdan iborat devoni, Sanoiyning “Hadiqa”siga payrav qilingan “Ushshoqnoma” nomli manzumi ham mavjud bo’lib, asarlari ishqiy va irfoniy mazmundadir.

Yunus Emro (1240-1320) – turk shoiri, Qur’on va hadis ilmlarini chuqur o’rgangan, o’z davrining yetuk mutasavvuf olimi bo’lgan zot bo’lib, Hoji Bektosh Valiy va Taptuk Bobo (Taptuk Emro) kabi ustozlardan ta’lim olgan. U o’z she’rlarida Alloh va Rasuliga (s.a.v) sevgi haqida kuyladi. “Sevaman, sevilaman” deb yozgan shoir insonlarni, yaratilganlarni sevisish orqali Yaratgan sevgisiga

³⁶ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 9-jild. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 465-bet.

³⁷ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent, G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 357-bet.

³⁸ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 9-jild. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 464-bet.

³⁹ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent, G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 471-bet.

⁴⁰ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 9-jild. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 498-bet.

⁴¹ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent, G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 297-bet.

⁴² Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 5-jild. Xamsat ul-mutahayyirin. – Toshkent, G’.G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 788-bet.

erishish haqida yozdi.

Asli shahrisabzlik, lekin taqdiri Hindiston bilan bog'langan shoir, adabiyotshunos, tarixshunos, bastakor, Sultoni, Dehlaviy taxalluslari bilan ijod qilgan, xalq va ijod olamida Xusrav Dehlaviy nomi bilan tanilgan Yaminiddin Abdulhasan ibn Amir Sayfuddin Muhammad ibn Imodulmulk (1253-1325) Sharq adabiyotining deyarli barcha janrlarida ijod qilib, forsiy she'riyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqqan, devon tuzish va xamsanavislik an'anasini boshlab bergan, hind adabiyotining taraqqiy etishiga munosib hissa qo'shgan benazir ijodkordir. Shuningdek, uning nomi "Qiron us-sa'dayn" ("Ikki saodatli sayyoraning uchrashuvi"), "Miftoh ul-futuh" ("G'alabalar kaliti"), "Duvalroniy va Xizrxon", "No'x sipehr" ("To'qqiz falak"), "To'g'luqnoma" dostonlar, adabiyot nazariyasi masalalaridan bahs etuvchi 5 risoladan iborat "E'jozi Xusraviy" ("Xusrav mo'jizasi") nasriy asari, "Manoqibi Hind" va "Tarixi Dehli" kabi tarixiy asarlar muallifi sifatida qayd etiladi. Dehlaviy asarlarida diniy va dunyoviy masalalar badiiy talqin etiladi. Alisher Navoiyning asarlarida bu nom qayta-qayta uchraydi, bu zot ta'rif-tavsif etilgan o'rinlar talaygina. "Xamsa" dostonlarining barchasida, shuningdek "Lison ut-tayr"da Xusrav Dehlaviy ma'naviy ustoz, ijodiy rahnamo va ulug' mutafakkir sifatida tilga olinadi. Undan tashqari, "Mahbub ul-qulub" asarida "Nazm gulistonining xushnag'ma qushlari zikrida" bobida Amir Xusrav Dehlaviy nomi "haqiqat asrorig'a majoz tariqin maxlut" va "kalomlari bu uslubda marbut" etgan ijodkorlar safida "ishq ahli guruhiining pokbozi va pokravi"⁴³ degan baho bilan sifatlab o'tilsa, "Ishq zikrida" degan bobda xoss ishq sohiblarining eng birinchilari qatorida turishini qayd etadi: Amir Xusrav Dehlaviy "pok ko'zni pok nazar bila pok yuzga solmoq" va "pok ko'ngul ul pok yuz oshubidin qo'zg'olmoq" va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq"qa xos bo'lgan ishq kuychisi, "ishq ahlining pokboz (sadoqatli)lari va shavq-u niyoz ahlining nazmtiroz (ziynatlangan she'r sohibi) va afsonapardozlari mutaqqaddimindin", "nazm beshasining g'azanfari (arsloni) va dard-u ishq otashkadasining samandari va zavq-u hol vodisining pokravi", "pok nafas va guftori, pok alfoz va maoniylik ash'ori ishq ahlining orasida g'avg'o va vajd-u hol (behushlik, hayajon) anjumani fazosida alolo (g'avg'o) sol"⁴⁴ganligi mubolag'asiz bayon qilinadi. Xusrav Dehlaviyga, uning oshiqlik maqomiga, hassos she'riyatiga Hazrat Navoiyning ixlosi shu darajada yuqori bo'lganki, bu zotga "sohiri hind", "joduyi hind" (hind sehrgari) deya yuksak baho bergani ham, "Muhokamat ul-lug'atayn" asaridagi: "Ishq-u dard ahlining rahbar va peshvari Amir Xusrav Dehlaviy devonikim, oshiqlikda dard-u niyoz va so'z-u gudoz (dard) tarixin ul muntashir (ma'lum) qildi va oning ishq mash'alidin bu partav olam tiyra xokdonig'a yoyildi"⁴⁵ degan ta'rif ham buning yaqqol dalilidir.

O'zbek va fors-tojik adabiyotida, asosan, g'azallari bilan shuhrat qozongan, adabiyot, arab tili, fiqh, hadis, kalom, hikmat tafsir va tasavvufni puxta bilgan Kamoliddin Mas'ud Xo'jandiy (1321-1401) haqida Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida to'xtalib o'tar ekan, bu zotning shaxsiyatiga yuksak baho beradi va ijodidan namunalar keltiradi: "Shayx Kamol Xo'jandiy q. r. bag'oyat buzurg ermishtar. Alarning ishtig'oli (mashg'uloti) she'rg'a va aning nozukluklarig'a va o'z hollarining satr-u talbisi (pinhonona, rango-rang ifodalash) uchun erdi erkin. Alad-davom riyozat va mujohidotqa mashg'ul ermishtar"⁴⁶. Shuningdek, Alisher Navoiyning bu shoir ijodiga befarq bo'lmaganligini "Devoni Foni"da uning g'azallaridan to'rttasiga javob yozilganidan ham bilish mumkin.

Birgina devoni bilan yarim dunyoni egallagan, G'arb-u Sharqqa hofizona ohanglarni olib kirgan

⁴³ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 465-bet.

⁴⁴ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 9-jild. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 498-bet.

⁴⁵ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 10-jild. Muhakamat ul-lug'atayn. – Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 521-bet.

⁴⁶ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 481-bet.

“isonafaslik rindi Sheroz”, “yagonayi asr” (Navoiy) Xoja Hofiz Shamsuddin Muhammad Sheroziy (1325/26-1388/89) olam va odam masalalari, ijtimoiy-ma’naviy muammolar tahlili, inson ruhiyatining tovlanishlari, ko’ngil kechinmalarining jonli tasviri bilan yo’g’rilgan ijodi bilan muxlislar qalbiga kirib bordi. Hofiz ijodida kuylangan ishq sabab Navoiy uni ulug’laydi: “...mutaaxxirindin ikki olamni bir dov bila o’ynag’on muqammir shevalar pokbozi va ishq dayri fanosida haqiqat bodasidin mast rindlar hamrozi shams ul-millat va d-din”.⁴⁷

Yuqorida nomlari zikr etilgan ijodkorlar Alisher Navoiy asrigacha bo’lgan davrda yashagan hamda o’z asarlarida irfoniy-tasavvufiy qarashlarni, ilohiy muhabbat uchqunlarini, ishq va may timsolini, yor va diyor dardini kuylagan qalamkashlardir. Bu qalam ahlining ijod yo’li Navoiy va uning zamondoshlari uchun tajriba maktabi vazifasini o’tagan.

E’tibor qilinsa, bu zotlarning juda ko’pchiligi Navoiy tomonidan uning asarlarida tilga olingan, ta’rif-u tavsif etilgan, yuksak bahoga ega bo’lgan, hatto ma’naviy ustoz maqomida bo’lganlari ham talaygina.

Alisher Navoiy nafaqat irfoniy-tasavvufiy adabiyot silsilasi vakillarining ismlari, balki ularning hayot tarzi, insoniy fazilatlarini, ijod mahsuli bo’lgan asarlari bilan ham yaxshi tanish bo’lgan, ularni sevib mutolaa qilgan, hatto yod olgan, ba’zilarining asarlariga javob yozgan, an’analarni davom ettirgan.

Navoiyning juda ko’p asarlarida fikrini dalillash, badiiy g’oyani ta’sirchan ifodalash uchun bu buyuk shaxslarning hayoti bilan bog’liq epizodlar, hikoyat va lavhalardan unumli foydalangan.

Hazrat Navoiyning irfoniy-tasavvufiy asarlari bilan bir qatorda ilmiy, tarixiy, axloqiy-falsafiy asarlarida ham yuqorida nomlari zikr etilgan zotlarning ruhiy quvvati, tafakkur tarzi, fikr dunyosi ta’siri ko’zga tashlanadi.

Ikkinchi Renessans deb ataluvchi davrgacha bo’lgan irfoniy-tasavvufiy adabiyot XV asrda o’zining badiiy kamolot cho’qqisiga chiqdi. Xususan, turkiy adabiyotda Navoiy bu yo’nalishdagi adabiyotga toj kiydirdi.

XV asrgacha bo’lgan irfoniy-tasavvufiy adabiyot vakillarining hayoti va ijodini o’rganish Alisher Navoiy ijodini o’rganish uchun ochqich – kalit vazifasini o’taydi va, o’z navbatida, navoiyshunoslik ilmi rivoj topishi orqali buyuk mutasavvuf shoir davrigacha bo’lgan tarixni o’rganish, noma’lum qirralarini ochish, tarix sirlaridan voqif bo’lish imkoniyati paydo bo’ladi.

Demak, Navoiy hayoti va faoliyatini, butun ijodini mukammal o’rganish, merosini tadqiq etish o’tmish va kelajak uchun ko’prik vazifasini o’tashi shibhasiz.

Adabiyot vakillari ichida nazm tizgan shoirlar ta’rifida Navoiy yana bir guruhni sanab o’tadiki, ularning she’riyatida majoz tariqi ustunlik qiladi. Alisher Navoiy tilga olgan Kamol Isfahoni, Xoqoni Shervoni, Xojuyi Kirmoniy, Mavlono Jaloluddin, Xoja Kamol, Zahir, Abdulvosi’, Asir, Salmon Sovajiy, Nosir Buxoriy, Kotibiy Nishopuriy, Shohiy Sabzavoriy kabi iste’dodlar ijodini o’rganish keyingi tadqiqodlarimiz obyekti bo’ladi. Undan tashqari, “Majolis un-nafois” asarining dastlabki majlislarida hamda “Nasoyim ul-mahabbat” asarida bir qancha sufiysifat shoirlar, ma’rifatullohdan bahramandlik ijodida in’ikos etgan adiblarni tilga olib o’tadiki, irfoniy-tasavvufiy adabiyotning XV asrgacha bo’lgan davri namoyondalari sifatida bunday zotlarning hayoti va ijodini imkon qadar o’rganish, adabiy merosini tadqiq etish, mavjud ma’lumotlarni manbalar asosida boyitish bugungi kun adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalardandir.

⁴⁷ Alisher Navoiy. To’la asarlar to’plami. 10 jildlik. 9-jild. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, G’G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013. 498-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 5-jild. Xamsat ul-mutahayyirin. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 6-jild. Hayrat ul-abror. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.
3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 9-jild. Lison ut-tayr. Majolis un-nafois. Mahbub ul-qulub. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.
4. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 10-jild. Nasoyim ul-muhabbat. Muhokamat ul-lug‘atayn. – Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013.
5. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. 4 tomlik. 1-4-tomlar. – Toshkent, “FAN” nashriyoti, 1983-1985-yillar.
6. Бертельс Е.Б. Сўфизм ва тасаввуф адабиёти. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. Тошкент, “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” нашриёти, 205.
7. Ислом тасаввуфи манбалари. Тузувчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи филолсгия фанлари доктори, профессор Ҳамидулла Болтабоев. – Тошкент, “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2005.
8. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2009.
9. Тасаввуф адабиёти лингвопоэтикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2011.
10. <https://n.ziyouz.com>